




SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



# 2021- yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




Guliston – 2021- y.



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





**2021- yil yanvar-iyun**


**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1968,6** mlrd. so'mga yetib, uning nominal hajmi **514,5** mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,9 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)





## 2021- yil yanvar-iyun

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1968,6</b>	<b>124,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	109,1	123,9
Moliyaviy xizmatlar	631,3	135,4
Transport xizmatlari	300,5	116,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<b>282,6</b>	<b>114,6</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	47,3	112,7
Savdo xizmatlari	510,8	112,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	46,7	131,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	77,6	151,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,1	129,7
Ijara xizmatlari	44,3	161,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	49,8	126,7
Shaxsiy xizmatlar	41,0	121,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	23,6	143,1
Boshqa xizmatlar	51,5	133,9





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

### Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **32,1 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida eng kichik ulush esa atigi **1,2 %** ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida **30,5 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,1 %**.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish ijara sohasida (**161,8 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**151,9 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**143,1 %**), moliyaviy xizmatlarda (**135,4 %**) qayd etildi.

Savdo (**112,1 %**), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**112,7 %**) sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining pasayishi kuzatildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**149,2 %**). Boshqa xizmatlarda biroz past o'sish kuzatilgan (**81,1 %**).



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **25,9 %** ni tashkil etdi, bu esa **510,8** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **409,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **28,1 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2020- y. yanvar-iyun**

**Xizmatlar hajmi**  
**409,2 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati**  
**87,6 %**

**Ulushi**  
**28,1 %**



**2021- y. yanvar-iyun**

**Xizmatlar hajmi**  
**510,8 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati**  
**112,1 %**

**Ulushi**  
**25,9 %**





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**


2021- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **67,7 %** ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)**



**Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo ulushi **66,7 %** ga yetdi.



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar**

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **631,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **443,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **32,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **30,5** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **188,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **35,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **149,2** % ga yetgan.



## 2021- yil yanvar-iyun

## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** oralig'ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan.





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

**2020- y. yanvar-iyun**

**2021- y. yanvar-iyun**

86,5  
mlrd. so'm

**Xizmatlar hajmi**

109,1  
mlrd. so'm

113,0 %

**O'sish sur'ati**

123,9 %

5,9 %

**Jami hajmdagi  
ulushi**

5,5 %

**Hajmning o'sishi**

22,6 mlrd. so'mga





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

49,7  
mlrd. so'm

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

77,6  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-  
iyun



2021- y.  
yanvar-  
iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **77,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,8** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **151,9** % ni tashkil etdi.

103,3 %

**O'sish sur'atlari, % da**

151,9 %

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi 49,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish 103,3 % darajasida qayd etilgan.



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**37,1**

2020- y.  
yanvar-iyun

**47,3**

2021- y.  
yanvar-iyun



**O'sish  
sur'ati, % da**

**85,2**

**112,7**

2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **10,2** mlrd. so'mga ortdi.



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun

**90,4 %**

**9,6 %**



**8,1 %**

**91,9 %**

**2020- y. yanvar-iyun**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar**



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,4 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yilda ularning ulushi **91,9 %** ni tashkil etgan.





**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y. yanvar-iyun**

**2021- y. yanvar-iyun**

25,1  
mlrd. so'm

**Xizmatlar  
hajmi**

35,1  
mlrd. so'm



97,7 %

**O'sish  
sur'ati**

129,7 %

1,7 %

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

1,8 %








**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Guliston shahriga tegishli - **46,1 %** (2020- yilda **44,4 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida **2,9 %** (2020- yilda **3,1 %**) qayd etildi.



## 2021- yil yanvar-iyun

## Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1968,8</b>	<b>124,9</b>	<b>105,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	908,2	129,6	120,2
Shirin	57,1	117,8	95,2
Yangiyer	149,2	117,7	97,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	108,1	125,6	86,9
Guliston	77,1	120,8	97,5
Mirzaobod	93,4	115,3	100,1
Oqoltin	59,7	127,2	95,1
Sardoba	67,0	114,9	96,1
Sayxunobod	87,1	114,7	50,5
Sirdaryo	262,3	123,8	95,9
Xovos	99,4	129,8	96,7



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**Hajmning o'sishi**

**2276,8  
ming so'm**

**565,7 ming  
so'mga**

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2276,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,7 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1711,1** ming so'mni tashkil etgan.

**122,7 %**

**O'sish sur'ati**



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

10274  
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

112,5 %



1139  
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

63,5 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi






## 2021- yil yanvar-iyun

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,5 %**, sanoat **13,2 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,5 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **9,8 %** ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,7 %**, sanoat **13,0 %**, qurilish **9,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,7 %** ni tashkil etgan.




**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



**53,7 %**

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **53,7 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **51,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 67-236-86-36